



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,
1-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining boshqaruv funksiyalari.....	10
Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna	
Texnologik mashinalar va jihozlar ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik qonuniyatlari va metodologik tizimini ishlab chiqish	15
Elmanov Abbas Begmat o'g'li, Mirzaumidov Asilbek Shuxratjonovich	
Katta yoshdagi guruh bolalarida o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda o'yinning roli	19
Ergasheva Farangiz Umidjon qizi, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirishning dolzarbligi.....	23
Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari	28
Gulmira Jumanova	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati	33
Erboyev Suxrob Abdusalomovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar va ularda hissiy-irodaning shakllanishi	37
Davlatova Zebo Haydarovna	
Zamonaviy oilada avlodlararo munosabatlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari	40
Ochilova Farida Baxriddinovna	
Maktab va oliy ta'lim muassasalarida qizlar kitobxonligini rivojlantirish metodlari	44
Qo'chqarova Oysha Oltibayevna	
Buyuk allomalar merosidan foydalanishning metodik holati va mavjud muammolari.....	48
Sevara Mamatkarimova	
Futbol o'yinida to'pga kalla bilan zarba berish.....	53
Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li	
Использование современных инновационных методов в процессе обучения русскому языку в иноязычных группах высшего образовательного учреждения.....	56
Курбанова Шаира Исмаиловна	
Maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ...	60
Kushakova Gulnora Egamkulovna, Muhammadiyeva Shaxzoda Sunnatilla qizi	
Boshlang'ich sinflarda musiqa mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari	63
Muminova Feruza Farxodovna	
Alisher Navoiy merosining yoshlar ma'naviy-estetik tarbiyasidagi ahamiyati	70
Qayumxo'jayev Botirxo'ja Ikromxo'ja o'g'li	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida amaliy topshiriqlar orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish	74
Saidova Dilnoza Maripovna	
К вопросу о классификации современной антиутопии.....	78
Дмитрий Валерьевич Пупонин	
Когнитивная гибкость как фактор психологического благополучия старшеклассников в период адаптации к новым образовательным требованиям	82
Муксинова Динора Азаматовна	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash: xalqaro tajribalar qiyosiy tahlili va O'zbekiston amaliyoti	87
Baxtiyarova Muniba Ne'matjon qizi	
Valeologik tarbiya asosida maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini tayyorlashda innovatsion va raqamli yondashuvlar	92
Berkinova Charos Islomovna	



Grammatik tushunchalarni o'rgatish metodikasi.....	96
<i>N. R. Masharipova</i>	
Umumiy o'rta ta'lim tizimini takomillashtirish va o'quvchilar bilimini baholashda xorijiy tajribalardan foydalanish finlyandiya ta'lim tizimi misolida.....	99
<i>Obidova Muqaddas Ro'ziqulovna</i>	
The Difference Between Androgogy and Pedagogy.....	106
<i>Pardayeva Aziza Rahmatillojevna</i>	
Elektr mashinalari fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalari.....	110
<i>Shodiyeva Nozina Shuxrat qizi</i>	
Umumta'lim maktablarida direktor o'rinbosarlarining aksiologik yondashuv asosida boshqaruv funksiyalari va vakolatlari hamda maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish yo'llari.....	113
<i>Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li</i>	
Ispan tili darslarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish usullari	119
<i>Tursunqulov Sanjar Dilmurod o'g'li, Shukurullayeva Feruza Dilmurodovna</i>	
Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxta navlarining qo'llanilishi	124
<i>Ubaydullayeva Komila Bozor qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda empatiya hissini shakllantirishning nazariy asosi	127
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Bahodirovna</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi	130
<i>Raximova Dilshoda Xoliqberdiyevna</i>	
Bo'lajak sport murabbiylarida kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari	134
<i>Sherzod Shuxratovich Boboyorov</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida talabalar sportini rivojlantirishning iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlari.....	138
<i>Sangirov Nuriddin Iriskulovich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning integrativ modeli	142
<i>Rasulova Umida Bahodir qizi</i>	
Yashil pedagogikaning konseptual modeli va tamoyillari.....	146
<i>Raxmatova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Ta'lim jarayoni ishtirokchilarida emotsional barqarorlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari ..	149
<i>Boymatova Munavvar Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy raqamli platformalardan foydalanish samaradorligi.....	152
<i>Lukmonova Salomat Gafurovna</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimining shakl, metod va vositalari	157
<i>Farmonova Madina Bahriddin qizi</i>	
Innovatsion boshqaruv tizimlarida qaror qabul qilish va kommunikatsiya samaradorligi	161
<i>Sotvoldiyeva Xurliqo G'ayratjon qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning media savodxonligini shakllantirish metodikasi.....	167
<i>Choriyeva Xurmo Panji qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim mutaxassislari malakasini oshirish tizimining zamonaviy tendensiyalari va raqamlashtirish jarayonlarining pedagogik ahamiyati.....	172
<i>Qosimova Sh. N., Dusmaxamedov A. A.</i>	
Maktab o'quvchilarida o'zini o'zi tarbiyalashni shakllantirishning pedagogik asoslari (8–9-sinflar asosida)..	177
<i>Norxo'jayeva Lobar Nuriddin qizi</i>	
STEAM loyihalar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy va tanqidiy tafakkurni shakllantirish	181
<i>Mirjamolova Moxira Abdugaffor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati va metodik asoslari.....	188
<i>Axmad Bolqiyev</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida baholashning pedagogik asoslari.....	191
Shavqiddin Burxonov	
Boshlang'ich ta'limda liderlik va pedagogik menejment muammolari.....	194
Pardaboyev Doston	
Raqamli ta'lim muhiti: tushunchasi, strukturasi va rivojlanish tendensiyalari.....	197
Kulboyeva Dilnoza Abdug'afurovna	
Особенности применения графических органайзеров на практических занятиях по дисциплине “Практикум литературы народов СНГ”.....	199
Татьяна Викторовна Половинкина	
Historical Stages in the Study and Treatment of Scoliosis (Spinal Curvature).....	204
Shermatova Mokhira Baxodir qizi	
Talaba qizlarga badiiy gimnastika cho'qmori yordamida bajariladigan fundamental mashqlarni o'rgatish....	209
Musharafxon Sultanova	
Oliy ta'limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bo'yicha xalqaro modellarning qiyosiy tahlili.....	213
Ziyotova Madina	
Sport mutaxassislarini tayyorlashda voleybol o'qituvchisining ko'nikmalari va uslubi	216
Turg'unov Baxtiyor O'rolovich	
Matematik masalalarni yechish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish	220
Yusupova Latofat Nuriddinovna	
Zamonaviy sharoitda bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari	228
Nasirova Nigora Baxtiyor qizi	
Paraengil atletika mashg'ulotlarida individual yondashuvning ahamiyati	233
Abduxoliqova Shoiraxon Akramjon qizi	
Biologiya fanini o'qitishda xalq pedagogikasi elementlaridan foydalanish orqali ekologik madaniyatni rivojlantirish	239
Baxrombekova Sojidxon Sherzodjon qizi	
Maktab texnologik ta'limida axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'quv samaradorligiga ta'siri: o'rta muddatli istiqbollar (2027–2031)	245
Berdiyeva Gulnoza Rizoqulovna, Tursunov Sherzod Ziyat o'g'li, Ismatullayev Javohir Ubaydulla o'g'li	
Axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali jismoniy tarbiya va sport tizimini boshqarish samaradorligini oshirish	251
Eryigitov Dilshod Xolboyevich	
Enhancing Speaking Skills Productively in English	255
J. M. Fayzullayev, G. R. Elmonova	
Nutqida nuqsoni bo'lgan katta guruh bolalari bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	259
Jumanova Iroda Nomozovna, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich	
2–3 yoshli bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvi: nazariy va empirik tahlil	263
Klicheva Dilnoza Zulfon qizi	
Inson–texnika tizimida ta'lim olayotgan talabalarda iste'dod namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari	267
Kuvandikova Gulnora Gulamovna	
Bo'lajak pedagoglarning mutaxassis sifatida shakllanishida xavotirlanish holatining namoyon bo'lishi.....	270
Nuriddinov Rasuljon Samitjon o'g'li	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga tayyorlashda zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuv.....	274
Nuriddinova Maysara Ikramovna, Kodirova Albina Faridovna	
Talabalarda qaror qabul qilishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	279
Rajabova Go'zal Zarifovna	
Musobaqa oldi psixologik tayyorgarlikning tezkorlikka ta'siri.....	283
Sitara Elova Axmatkulovna	



Pediatriya ta'limida sun'iy intellekt – talaba uchun virtual assistent.....	287
Umarkulov Muhtorali Islomkulovich	
Bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarida jismoniy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	290
Xakimov Xurshid Nozimovich	
Сущность и виды познавательной активности детей 5–6 лет.....	294
Джамилова Н. Н., Кудратова М. У.	
Uzluksiz ta'lim jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalashning pedagogik-psixologik masalalari.....	298
Siddiqova Sanobar Xaydarovna	
Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish, ijodiy faolligini oshirish.....	301
Siddiqova Sanobar Xaydarovna, Qushoqova Guzal	
Badiiy adabiyotda Ibn Sino obrazining yaratilishidagi o'ziga xosliklar.....	304
Tangirov A. J.	



TALABALARDA QAROR QABUL QILISHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Rajabova Go'zal Zarifovna
BuxDPI psixologiya kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda qaror qabul qilishning pedagogik-psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Qaror qabul qilish jarayonining kognitiv, emotsional va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog'liqligi yoritilib, uning shakllanish mexanizmlari ilmiy asosda ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonida talabalar qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlar, jumladan muammoli ta'lim, interaktiv metodlar va refleksiv faoliyatning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari talabalarda mustaqil fikrlash hamda ongli qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: qaror qabul qilish, talaba, pedagogik-psixologik xususiyatlar, kognitiv jarayon, emotsional intellekt, refleksiya, mustaqil fikrlash.

Abstract: This article analyzes the pedagogical and psychological features of decision-making among students. It examines the relationship between decision-making and cognitive, emotional, and social factors, and provides a scientific explanation of its formation mechanisms. Special attention is given to pedagogical approaches aimed at developing students' decision-making competencies, including problem-based learning, interactive methods, and reflective activities. The results of the study highlight the necessity of developing students' independent thinking and conscious decision-making skills.

Key words: decision-making, student, pedagogical and psychological features, cognitive process, emotional intelligence, reflection, independent thinking.

Аннотация: В данной статье проанализированы педагогико-психологические особенности процесса принятия решений у студентов. Раскрыта взаимосвязь принятия решений с когнитивными, эмоциональными и социальными факторами, а также научно обоснованы механизмы его формирования. Особое внимание уделено педагогическим подходам, направленным на развитие компетенций принятия решений у студентов, включая проблемное обучение, интерактивные методы и рефлексивную деятельность. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости развития у студентов навыков самостоятельного и осознанного принятия решений.

Ключевые слова: принятие решений, студент, педагогико-психологические особенности, когнитивный процесс, эмоциональный интеллект, рефлексия, самостоятельное мышление.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda tezkor o'zgarishlar, axborot oqimining keskin ortishi va raqobat muhitining kuchayishi insondan, ayniqsa talabalardan, mustaqil va mas'uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatini talab etmoqda. Oliy ta'lim tizimida bilim berish bilan bir qatorda, talabalarda hayotiy vaziyatlarda to'g'ri va samarali qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biriga aylanmoqda. Chunki talabalar kelajakda turli kasbiy va ijtimoiy rollarni bajararkan, ularning muvaffaqiyati ko'p jihatdan qabul qilgan qarorlarining to'g'riligi va asoslanganligiga bog'liq bo'ladi.

Qaror qabul qilish jarayoni psixologik jihatdan murakkab bo'lib, u shaxsning kognitiv (aqliy), emotsional va irodaviy xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birga, mazkur jarayon ta'lim muhiti, o'qitish usullari va pedagogik ta'sirlar orqali ham shakllanadi. Demak, talabalarda qaror qabul qilishni rivojlantirish nafaqat psixologik, balki pedagogik muammo sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarda yechim topish qobiliyatini oshirishga qaratilgan yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, talabalar ko'p hollarda qaror qabul qilishda ikkilanish,

tashqi ta'sirlarga ortiqcha bog'liqlik yoki yetarli tahlil qilmasdan shoshilinch xulosa chiqarish kabi muammolarga duch kelishmoqda.

Shu nuqtai nazardan, talabalarda qaror qabul qilishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish, mazkur jarayonga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va uni samarali rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi - talabalarda qaror qabul qilish jarayonining pedagogik-psixologik xususiyatlarini tahlil qilish, uning shakllanish omillarini yoritish va ta'lim jarayonida ushbu ko'nikmani rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarining qaror qabul qilish jarayoni tanlangan bo'lib, tadqiqot predmeti esa ushbu jarayonning pedagogik-psixologik xususiyatlari hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarda qaror qabul qilish jarayoni psixologiya, pedagogika, menejment va kognitiv fanlar kesishmasida o'rganiladigan kompleks ilmiy muammo hisoblanadi. Mazkur masala bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ular qaror qabul qilishning nazariy asoslari, psixologik mexanizmlari va pedagogik shart-sharoitlarini turli jihatlardan yoritib berganlar.

Xorijiy olimlardan D. Kahneman va A. Tversky tomonidan ishlab chiqilgan qaror qabul qilishning prospekt nazariyasi insonning noaniqlik sharoitida qanday tanlov qilishini tushuntirib beradi. Ularning tadqiqotlarida insonlar ko'pincha ratsional emas, balki heuristikalar va subyektiv baholashlarga asoslangan holda qaror qabul qilishi ilmiy asoslangan.

G. Simon esa "cheklangan ratsionallik" konsepsiyasini ilgari surib, insonning qaror qabul qilish imkoniyatlari uning bilimlari, vaqt va axborot resurslari bilan chegaralanganligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, J. Dewey qaror qabul qilishni muammoli vaziyatni hal etishga qaratilgan refleksiv tafakkur jarayoni sifatida izohlaydi.

Psixologiya sohasida qaror qabul qilish jarayonining kognitiv va emotsional jihatlari keng o'rganilgan. Xususan, R. Lazarus stress va emotsiyalarning inson qarorlariga ta'sirini asoslab bergan bo'lsa, A. Bandura ijtimoiy-kognitiv nazariyasi orqali shaxsning o'ziga ishonchi (self-efficacy) qaror qabul qilish samaradorligiga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Mahalliy olimlar tomonidan ham ushbu muammo chuqur o'rganilgan. Jumladan, E. G'oziyev, B. Qodirov, M. Davletshin kabi olimlar shaxs psixologiyasi, tafakkur va faoliyat jarayonlarida qaror qabul qilishning o'rni va ahamiyatini yoritib berganlar. Ular talabalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil va ongli tanlov qilish ko'nikmalarini shakllantirish pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlaydilar.

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotchilardan J.Dj.Ramazonov o'z ilmiy ishlarida talabalar faoliyatida qaror qabul qilishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini kompleks tarzda tahlil qilgan. Unga ko'ra, "qaror qabul qilish jarayoni talabaning bilim darajasi bilan bir qatorda uning emotsional barqarorligi, motivatsiyasi va ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqasi orqali shakllanadi". Olim, shuningdek, "ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va talabalarining mustaqil yechim topish faoliyatini qo'llab-quvvatlash qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishning eng samarali yo'llaridan biridir", deya qayd etadi.

Yana bir muhim jihat sifatida J.Dj.Ramazonov "talabalarda refleksiv tafakkurni rivojlantirish orqali ularning qaror qabul qilish sifati va ongli tanlov qilish qobiliyati sezilarli darajada oshadi", deb ta'kidlaydi. Bu fikrlar qaror qabul qilish jarayonida nafaqat bilim, balki shaxsning ichki psixologik resurslari ham muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qaror qabul qilish muammosi keng o'rganilgan bo'lsa-da, uni aynan talabalik davrida pedagogik va psixologik jihatdan integrativ yondashuv asosida tadqiq etish, zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'un holda rivojlantirish masalalari hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qaror qabul qilish inson faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, u shaxsning muayyan vaziyatda mavjud alternativ variantlar orasidan eng maqbulini tanlash jarayonini ifodalaydi. Talabalik davrida ushbu jarayon o'ziga xos psixologik va pedagogik xususiyatlarga ega bo'lib, ularning shaxs sifatida shakllanishi, mustaqil fikrlashi va kasbiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Qaror qabul qilish jarayoni, avvalo, kognitiv faoliyat bilan bog'liq bo'lib, unda axborotni qabul qilish, qayta ishlash, tahlil qilish va umumlashtirish kabi jarayonlar ishtirok etadi. Talabalarda bu jarayon hali to'liq shakllanmaganligi sababli ular ko'pincha qaror qabul qilishda soddalashtirilgan fikrlash usullariga tayanadi yoki yetarli tahlil qilmasdan shoshilinch xulosalar chiqaradi.



Qaror qabul qilish jarayonida emotsional omillar ham muhim rol o'ynaydi. Talabalarning hissiy holati, xususan, stress, xavotir, o'ziga ishonchsizlik yoki ortiqcha hayajon ularning qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Emotsional barqarorlik yetarli darajada rivojlanmagan hollarda talaba murakkab vaziyatlarda to'g'ri tanlov qilishda qiynaladi. Shu bois, qaror qabul qilish faqat aqliy faoliyat mahsuli emas, balki emotsional va irodaviy jarayonlarning o'zaro uyg'unligi natijasidir. Bundan tashqari, talabani motivatsiyasi, ya'ni uning maqsadga yo'naltirilganligi va ichki rag'batlari ham qaror qabul qilish sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Aniq maqsadga ega bo'lgan talabalar qarorlarni ongli va izchil ravishda qabul qiladilar.

Talabalarda qaror qabul qilish jarayoni ijtimoiy muhit ta'sirida ham shakllanadi. Guruh bosimi, tengdoshlar fikri, oila va jamiyat qadriyatlarini ko'pincha talabani mustaqil qaror qabul qilishiga to'sqinlik qiladi yoki aksincha, uni ma'lum yo'nalishga undaydi. Shu sababli, talabalar ko'pincha o'z qarorlarida ijtimoiy moslashuvni ustun qo'yadilar. Bu esa ularning mustaqil fikrlash darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday holatlarda talabalarda tanqidiy fikrlash va o'z nuqtai nazarini himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari, xususan, muammoli ta'lim, keys-stadi, loyiha asosida o'qitish va interaktiv metodlar talabalarning faol ishtirokini ta'minlab, ularni mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishga undaydi. Bunday yondashuvlar talabalarda real hayotiy vaziyatlarga yaqin sharoitlarda fikrlash va muammoni hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, o'qituvchining roli ham muhim bo'lib, u faqat bilim beruvchi emas, balki talabani fikrlash jarayonini yo'naltiruvchi, qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi shaxs sifatida namoyon bo'lishi lozim. Demokratik va ochiq ta'lim muhiti yaratilganda talabalar o'z fikrini erkin ifoda etish va mustaqil qaror qabul qilishga intiladilar.

Qaror qabul qilish jarayoni muayyan bosqichlar asosida kechadi va talabalar bu bosqichlarni to'liq anglab yetmagan hollarda qaror sifatida xatolarga yo'l qo'yishlari mumkin. Ayniqsa, alternativ variantlarni yetarlicha ishlab chiqmaslik, natijalarni oldindan baholamaslik va refleksiya bosqichiga yetarli e'tibor bermaslik talabalarda keng uchraydigan kamchiliklardan biridir. Refleksiya, ya'ni qabul qilingan qaror natijalarini tahlil qilish kelajakda yanada to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun muhim asos yaratadi.

Talabalarda qaror qabul qilish jarayonida uchraydigan muammolar orasida tajribaning yetishmasligi, o'ziga ishonch pastligi, axborotning ortiqchaligi yoki yetishmasligi, shoshilinch qarorlar qabul qilish va ijtimoiy bosimga berilish kabi holatlar alohida o'rin egallaydi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun talabalarda qaror qabul qilish kompetensiyasini tizimli ravishda rivojlantirish zarur. Bu esa, o'z navbatida, psixologik va pedagogik yondashuvlarning uyg'unligini talab etadi.

Qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda tanqidiy fikrlashni shakllantirish, emotsional intellektni rivojlantirish, stressga bardoshlilikni oshirish va reflektiv tafakkurni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish, rol o'yinlari va simulyatsiyalarni qo'llash, talabalarga mustaqil ishlash imkoniyatini berish ham samarali natijalar beradi. Bunday yondashuvlar talabalarda nafaqat bilim, balki hayotiy muhim kompetensiyalarni ham shakllantiradi.

Umuman olganda, talabalarda qaror qabul qilish jarayoni murakkab va ko'p omilli tizim bo'lib, uning samaradorligi shaxsning psixologik xususiyatlari, ijtimoiy muhiti va ta'lim jarayonining tashkil etilishiga bog'liq. Mazkur jarayonni chuqur o'rganish va uni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan yondashuvlarni amaliyotga joriy etish talabalarning shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Talabalarda qaror qabul qilish jarayoni ularning shaxsiy, intellektual va kasbiy rivojlanishida muhim o'rin tutuvchi murakkab pedagogik-psixologik hodisa ekanligi tadqiqot davomida o'z tasdig'ini topdi. Ushbu jarayon nafaqat kognitiv faoliyat, balki emotsional holat, motivatsiya va ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham talabalarda samarali qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish kompleks yondashuvni talab etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, talabalar ko'pincha qaror qabul qilishda tajriba yetishmasligi, o'ziga ishonchning pastligi, ijtimoiy bosim va emotsional beqarorlik kabi omillar sababli qiyinchiliklarga duch keladilar. Ayniqsa, alternativ variantlarni chuqur tahlil qilish, oqibatlarini oldindan baholash va refleksiya qilish bosqichlari yetarli darajada rivojlanmaganligi qarorlar sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik yondashuvlar - muammoli ta'lim, interaktiv metodlar, keys-stadi va loyiha asosida o'qitish - talabalarda mustaqil fikrlash va ongli qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Ta'lim jarayonida erkin va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish, talabalarning faolligini oshirish hamda ularni mustaqil qaror qabul qilishga rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, talabalarda qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirish oliy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo'lishi lozim. Bu borada psixologik va pedagogik omillarning uyg'unligini ta'minlash, innovatsion ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish va talabalarning refleksiv tafakkurini rivojlantirish orqali yuqori samarali natijalarga erishish mumkin.

Talabalarda qaror qabul qilish kompetensiyasini samarali rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida psixologik va pedagogik yondashuvlarning uyg'unligini ta'minlash zarur. Avvalo, o'quv jarayoniga muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni muntazam ravishda kiritish maqsadga muvofiq bo'lib, bu talabalarni mustaqil fikrlashga va turli alternativ yechimlarni izlashga undaydi. Shu bilan birga, keys-stadi, loyiha asosida o'qitish va interaktiv metodlardan keng foydalanish talabalarda real hayotga yaqin sharoitlarda qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchining roli ham qayta ko'rib chiqilishi lozim. O'qituvchi bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi va fasilitator sifatida faoliyat yuritib, talabalarning mustaqil qaror qabul qilishiga sharoit yaratishi kerak. Bu borada ochiq muloqot muhiti, fikrlar xilma-xilligini qo'llab-quvvatlash va xatolarga ijobiy munosabatni shakllantirish muhim hisoblanadi. Chunki talabalar xatodan qo'rqmagan taqdirdagina mustaqil qaror qabul qilishga jur'at eta boshlaydilar.

Talabalarning psixologik tayyorgarligini oshirish ham alohida e'tibor talab etadi. Xususan, emotsional intellektni rivojlantirish, stressga bardoshlilikni kuchaytirish, o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash va refleksiv tafakkurni shakllantirishga qaratilgan trening va mashg'ulotlarni tashkil etish zarur. Bu esa talabalarning murakkab vaziyatlarda ham ongli va asosli qarorlar qabul qilishiga yordam beradi.

Shuningdek, qaror qabul qilish jarayonini bosqichma-bosqich o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Talabalarga muammoni tahlil qilish, alternativ variantlarni ishlab chiqish, ularni baholash va natijalarni oldindan prognoz qilish ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Bunda "tahlil - qaror - natija - refleksiya" modeli asosida ishlash samarali natija beradi.

Ta'lim jarayonida individual yondashuvni kuchaytirish ham muhimdir. Har bir talabani psixologik xususiyatlari, fikrlash darajasi va motivatsiyasini inobatga olgan holda ishlash qaror qabul qilish ko'nikmalarining samarali rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, guruhli ishlash, jamoaviy muhokamalar va debatlar orqali talabalarni turli nuqtai nazarlarni solishtirishga o'rgatish lozim.

Amaliy jihatdan esa talabalarning mustaqil faoliyatiga keng imkoniyat berish, ularni real loyihalarga jalb qilish, kasbiy vaziyatlarga yaqin topshiriqlarni bajarishga yo'naltirish tavsiya etiladi. Bu orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy qaror qabul qilish tajribasini ham egallaydilar.

Umuman olganda, talabalarda qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirish uzluksiz va tizimli jarayon bo'lib, u ta'limning barcha bosqichlarida izchil amalga oshirilishi zarur. Mazkur tavsiyalarni amaliyotga joriy etish orqali talabalar mustaqil, mas'uliyatli va strategik fikrlay oladigan shaxslar sifatida shakllanishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kahneman, D. Thinking, Fast and Slow. New York: Farrar, Straus and Giroux, 2011. (to'liq asar)
2. Tversky, A., Kahneman, D. Judgment under Uncertainty: Heuristics and Biases. Science, 1974, Vol. 185(4157), pp. 1124–1131.
3. Simon, H. A. Administrative Behavior. 4th ed. New York: Free Press, 1997. (to'liq asar)
4. Dewey, J. How We Think. Boston: D.C. Heath & Co., 1910. (to'liq asar)
5. Bandura, A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. New York: W.H. Freeman, 1997. (to'liq asar)
6. Lazarus, R. S. Emotion and Adaptation. New York: Oxford University Press, 1991. (to'liq asar)
7. Ramazonov, J. D. Talabalarda qaror qabul qilishning psixologik mexanizmlari. Ilmiy maqolalar to'plami, 2022, pp. 45–52.
8. Ramazonov, J. D. Ta'lim jarayonida qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish omillari. Pedagogika va psixologiya jurnali, 2023, pp. 33–40.
9. Goleman, D. Emotional Intelligence. New York: Bantam Books, 1995. (to'liq asar)

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.